XALQ DEPUTATLARI G’ALLAOROL TUMANI KENGASHI
QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-61-174-3-45-K/23 G‘allaorol tumani hokimligi

G‘allaorol tumanining 2024 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 25 dekabrdagi “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni, Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2023 yil 29 dekabrdagi VI-50-301-3-0-K/23-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 99-moddasi, “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023 yil 27 dekabrdagi 01-20-08-01-33/421-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2023 yil 25 dekabrdagi O‘RQ-886-sonli Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2023 yil 25 dekabrdagi O‘RQ-886-sonli Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, G‘allaorol tuman mahalliy byudjetining 2024 yil uchun daromadlari115 674 300,0 ming.so‘m, respublika byudjetidan o‘tkazib beriladigan daromadlar 31 658 967,0 ming.so‘m, xarajatlari 213 910 008,0 ming.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 66 576 741,0 ming.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024 yil uchun G‘allaorol tumani mahalliy byudjeti daromadlar prognozi 1-ilovaga muvofiq,

4. 2024 yil uchun G‘allaorol tuman mahalliy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024 yil uchun G‘allaorol tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024 yil uchun G‘allaorol tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024 yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1,0 foiz miqdorida belgilansin.

Tuman byudjetining 2024 yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan tuman byudjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

G‘allaorol tuman byudjetini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tuman byudjetining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

8. 2024 yil uchun tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq belgilansin.

9. 2024 yil mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga o‘tkaziladigan mablag‘ miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan erlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar er uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 7-ilovaga hamda jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan erlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 8-ilovaga muvofiq belgilansin.

11. 2024 yil uchun tuman byudjetining daromadlarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari

2024 yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (qatiy belgilangan soliq);

jismoniy shaxslar olinadigan er solig‘i;

jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i;

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovi;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

b) Quyidagilar viloyat va tuman mahalliy byudjeti o‘rtasida taqsimlanidi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;

aksiz solig‘i: - benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq;

yuridik shaxslar er solig‘i;

xususiylashtirishdan tushum;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

12. Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2023 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib beriladi.

13. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (T.Qo‘chqorov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Turdimurodov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Abdusattarov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

Tuman mahalliy byudjetining birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tuman mahaliiy byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

14. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Abdusattarov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

er solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali er va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

15. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Abdusattarov), Kadastr agentligi G‘allaorol tuman bo‘limi (E.Nazarov) 2024 yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 m^2 uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

16. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Abdusattarov), tegishli tuman tashkilotlari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan kar’erlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan kar’erlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan kar’erlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan kar’erlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

17. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (I.Axmurodov) tuman soliq inspeksiyasi (A.Abdusattarov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha amaliy chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

18. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Z.Usmonov), oila va xotin-qizlar bo‘limi (R.Boymatova), tegishli tuman tashkilotlari bilan birgalikda jismoniy shaxslarning er va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organiga amaliy yordam ko‘rsatsin.

19. Tuman irrigatsiya bo‘limi (O.Begimqulov) va tuman soliq inspeksiyasi (A.Abdusattarov) tegishli muassasalar birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

20. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (T.Qo‘chqorov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini "e-ijro auksion" maydonchasi orqali sotish ishlarini jadallashtirish vazifasi yuklatilsin.

21. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (T.Qo‘chqorov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatish va har chorakda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Kengashga hisobot berish vazifasi yuzlansin.

22. Tuman irrigatsiya bo‘limi (O.Begimqulov) va tuman soliq inspeksiyasi (A.Abdusattarov) tegishli tuman tashkilotlari bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

23. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

24. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (T.Qo‘chqorov)ga G‘allaorol tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi biroq, 6,0 mlrd.so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda rejalashtirish hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, YOshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari, byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

25. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (T.Qo‘chqorov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman tegishli muassasa va tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

26. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (T.Qo‘chqorov) Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa

ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

27. Mazkur qaror “G‘allaorol ovozi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

28. Ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

29. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari T.Qo‘chqorov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Ж.Оқбоев**

Xalq deputatlari G‘allaorol tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-61-174-3-45-K/23-son qaroriga
1-ilova

G‘allaorol tumani mahalliy byudjetining daromadlarining 2024 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming.so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami daromadlar (Kontengent)	Tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar foizda	SHu jumladan taqsimlanishi	
				Tuman byudjetiga	Viloyat byudjetiga
I	**Daromadlar jami**	**234 958 000,0**	**X**	**115 674 300,0**	**119 283 700,0**
1	YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	11 037 000,0	20,0	2 207 400,0	8 829 600,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	85 482 000,0	60,0	51 289 200,0	34 192 800,0
3	Aksiz solig‘i, jami	30 110 000,0	50,0	15 055 000,0	15 055 000,0
	shu jumladan:		0,0	0,0	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	30 110 000,0	50,0	15 055 000,0	15 055 000,0
4	YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	10 349 000,0	40,0	4 139 600,0	6 209 400,0
5	YUridik shaxslar er solig‘i	24 707 000,0	30,0	7 412 100,0	17 294 900,0
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 528 000,0	100,0	2 528 000,0	0,0
7	YAgona soliq to‘lovi	9 941 000,0	0,0	0,0	9 941 000,0
8	YATT uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 177 000,0	100,0	1 177 000,0	0,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i	23 200 000,0	100,0	23 200 000,0	0,0
10	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 290 000,0	100,0	8 290 000,0	0,0
11	Yig‘imlar	1 624 000,0	0,0	0,0	1 624 000,0
12	Davlat boji	5 220 000,0	0,0	0,0	5 220 000,0
13	Jarimalar	20 564 000,0	0,0	0,0	20 564 000,0
14	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	126 000,0	100,0	126 000,0	0,0
15	Davlat unitar korxonalari sof foydasidan ajratmalar	103 000,0	0,0	0,0	103 000,0
16	Xususiylashtirshdan tushum	500 000,0	50,0	250 000,0	250 000,0

Xalq deputatlari G‘allaorol tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-61-174-3-45-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun G‘allaorol tumani byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan byudjet mablag‘larining cheklangan miqdorlari

ming.so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	2024 yil
G‘allaorol tuman bo‘yicha xarajatlari miqdori, Jami		**213 910 008,0**
1	Tuman Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi	29 768 139,0
	shundan	
	Maktabgacha ta’lim	14 237 981,0
	Xalq ta’lim	15 530 158,0
2	Tuman Sog‘liqni saqlash tizimidagi tashkilotlar	101 315 444,0
3	Tuman Madaniyat bo‘limi	4 729 518,0
	shundan	
	15-son musika va san’at maktabi	3 382 715,0
4	Tuman YOshlar siyosati va sport bo‘limi	10 977 839,0
	shundan	
	YOshlar ishlari agentligi	3 618 987,0
	1 va 2-son sport maktablari	7 358 852,0
5	Tuman Kamabag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	4 701 730,0
	shundan	
	Tuman Oila va xotin qizlar bo‘limi	2 374 115,0
6	Tuman Qishloq bo‘limi	3 212 227,0
	shundan	
	Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1 858 713,0
	Tuman Xayvon kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xavsizligi davlat markazi	448 334,0
	Tuman fermer xo‘jaliklari buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi	905 180,0
7	Tuman irrigatsiya bo‘limi	1 500 927,0
8	Tuman Iqtisodiyot va Moliya bo‘limi	2 003 166,0
9	Tuman Soliq inspeksiyasi	4 519 925,0
10	Tuman hokimligi jami	**34 122 640,0**
	SHundan	
	Tuman Xalq qabulxonasi	159 113,0
	Tuman hokimining zaxira jamg‘armasi	1 903 201,0
	Tuman Axborot kutubxona markazi	615 060,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	21 686 752,0
	Xalq deputatlari tuman kengashi kotibiyati	246 225,0
	Hokim yordamchilari	3 774 250,0
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	2 803 491,0

	Ijtimoiy ko‘nikma markazi	63 377,0
10	Tuman xokimligi (obodonlashtirish boshqarmasi)	**17 058 453,0**
	shundan	
	Yo‘llarini saqlash va ekspluatatsiya xarajatlari	4 000 000,0

Xalq deputatlari G‘allaorol tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-61-174-3-45-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024 yil uchun umumdavlat soliqlaridan G‘allaorol tuman mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

foiz hisobida

T/R	SHaxar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	YAkka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (qatiy belgilangan soliq)	Jismoniy shaxslar er solig‘i	Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i	Ijara to‘lovi	Aksiz solig‘i: - benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	YUridik shaxslar er solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Xususiylashtirishdan tushum	YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
1	G‘allaorol tumani	60	20	100	100	100	100	50	30	100	50	40

Xalq deputatlari G‘allaorol tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-61-174-3-45-K/23-son qaroriga
4-ilova

G‘allaorol tuman mahalliy byudjetining 2024 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Jami daromadlar**	**shundan**			**Mahalliy byudjet xarajatlari**
		Mahalliy byudjet daromadlar	**O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, tamaki va alkogol)**	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	
G‘allaorol tumani	213 910 008.0	115 674 300.0	31 658 967,0	66 576 741.0	213 910 008.0

Xalq deputatlari G‘allaorol tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-61-174-3-45-K/23-son qaroriga
5-ilova

2024 yil uchun G‘allaorol tuman mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	G‘allaorol tumani	**821 000,0**

Xalq deputatlari G‘allaorol tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-61-174-3-45-K/23-son qaroriga
6-ilova

G‘allaorol tuman mahalliy byudjetidan 2024 yil uchun "Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi"ga ajratilgan mablag‘ miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	G‘allaorol tumani	**21 686 752.0**

Xalq deputatlari G‘allaorol tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-61-174-3-45-K/23-son qaroriga
7-ilova

2024 yil uchun tumanda qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar o‘yicha mutloq miqdorda 1 kv.m. yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/R	QFY va MFY lari nomi	2024 yil				
		2024 yil soliq stavkasi Soliq kodeksiga asosan	Xalq deputatlari viloyati kengashining qaroriga asosan qo‘llanilgan koeffitsient	2024 yil soliq stavkasi	Xalq deputatlari tuman kengashi qaroriga asosan qo‘llanilgan koeffitsient	2024 yil soliq stavkasi
1	Alamli MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,95	4 275,0
2	Baxt MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,90	4 050,0
3	G‘.G‘ulom MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,95	4 275,0
4	Do‘stlik MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,95	4 275,0
5	Olimlar MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,90	4 050,0
6	Samarqand MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,95	4 275,0
7	Buloqboshi QFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,70	3 150,0
8	Uzunbuloq MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,70	3 150,0
9	G‘o‘bdin QFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,70	3 150,0
10	Guliston QFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,80	3 600,0
11	Gulchambar QFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,70	3 150,0
12	Jiydali QFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,70	3 150,0
13	Qashqabuloq MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,80	3 600,0
14	Qipchoqsuv QFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,70	3 150,0
15	Naxroch MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,70	3 150,0
16	Korizquduq QFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,70	3 150,0
17	Qo‘ytosh SHFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,70	3 150,0
18	Ko‘kbuloq QFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,85	3 825,0
19	Ko‘kgumbaz MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,90	4 050,0
20	Lalmikor MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,90	4 050,0
21	O‘zbekiston MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,90	4 050,0
22	Madaniyat QFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,90	4 050,0
23	Qangli MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,90	4 050,0
24	Marjonbuloq SHFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,90	4 050,0
25	YAshnaobod MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,90	4 050,0
26	Mirzabuloq QFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,95	4 275,0
27	Nurafshon QFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,95	4 275,0
28	Moltob QFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,70	3 150,0
29	Mulkush QFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,95	4 275,0
30	Oqtom MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,80	3 600,0
31	Oqtosh MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,70	3 150,0
32	Savruk MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,70	3 150,0
33	Sarbozor MFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,95	4 275,0
34	Tozaurug‘ QFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,80	3 600,0
35	Xonimqo‘rg‘on QFY	3600,0	1,25	4 500,0	0,80	3 600,0

Xalq deputatlari G‘allaorol tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-61-174-3-45-K/23-son qaroriga
8-ilova

2024 yil uchun tumanda jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/R	QFY va MFY lar nomi	2024 yil				
		2024 yil soliq stavkasi Soliq kodeksiga asosan	Xalq deputatlari viloyati kengashining qaroriga asosan qo‘llanilgan koeffitsient	2024 yil soliq stavkasi	Xalq deputatlari tuman kengashi qaroriga asosan qo‘llanilgan koeffitsient	2024 yil soliq stavkasi
1	Alamli MFY	320,0	1,02	326,40	0,95	310,08
2	Baxt MFY	320,0	1,02	326,40	0,95	310,08
3	G‘.G‘ulom MFY	320,0	1,02	326,40	0,95	310,08
4	Do‘stlik MFY	320,0	1,02	326,40	0,95	310,08
5	Olimlar MFY	320,0	1,02	326,40	0,95	310,08
6	Samarqand MFY	320,0	1,02	326,40	0,95	310,08
7	Buloqboshi QFY	320,0	1,02	326,40	1,05	342,72
8	Uzunbuloq MFY	320,0	1,02	326,40	0,80	261,12
9	G‘o‘bdin QFY	320,0	1,02	326,40	0,70	228,48
10	Guliston QFY	320,0	1,02	326,40	0,96	313,34
11	Gulchambar QFY	320,0	1,02	326,40	0,70	228,48
12	Jiydali QFY	320,0	1,02	326,40	0,70	228,48
13	Qashqabuloq MFY	320,0	1,02	326,40	0,95	310,08
14	Qipchoqsuv QFY	320,0	1,02	326,40	0,70	228,48
15	Naxroch MFY	320,0	1,02	326,40	0,70	228,48
16	Korizquduq QFY	320,0	1,02	326,40	0,70	228,48
17	Qo‘ytosh SHFY	320,0	1,02	326,40	0,75	244,80
18	Ko‘kbuloq QFY	320,0	1,02	326,40	0,70	228,48
19	Ko‘kgumbaz MFY	320,0	1,02	326,40	0,95	310,08
20	Lalmikor MFY	320,0	1,02	326,40	0,95	310,08
21	O‘zbekiston MFY	320,0	1,02	326,40	0,95	310,08
22	Madaniyat QFY	320,0	1,02	326,40	1,00	326,40
23	Qangli MFY	320,0	1,02	326,40	1,00	326,40
24	Marjonbuloq SHFY	320,0	1,02	326,40	0,95	310,08
25	YAshnaobod MFY	320,0	1,02	326,40	0,95	310,08
26	Mirzabuloq QFY	320,0	1,02	326,40	1,01	329,66
27	Nurafshon QFY	320,0	1,02	326,40	1,01	329,66
28	Moltob QFY	320,0	1,02	326,40	0,76	248,06
29	Mulkush QFY	320,0	1,02	326,40	1,05	342,72
30	Oqtom MFY	320,0	1,02	326,40	1,05	342,72
31	Oqtosh MFY	320,0	1,02	326,40	0,70	228,48
32	Savruk MFY	320,0	1,02	326,40	0,70	228,48
33	Sarbozor MFY	320,0	1,02	326,40	1,10	359,04
34	Tozaurug‘ QFY	320,0	1,02	326,40	0,95	310,08
35	Xonimqo‘rg‘on QFY	320,0	1,02	326,40	0,95	310,08